

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**

**O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

Tuzuvchi: Chariyev Tursun Xuvayevich, dotsent

Fan/modul kodi 100.2UZT2M	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1 (kuzgi)	ECTS - Kreditlar 2	
1-semestr - Kredit 2	Ta‘lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
Fan darajasi Yuqori darajadagi fan 100	Fan/modul turi majburiy		Modul rahbari Chariyev Tursun Xuvayevich, dotsent Charievtursun2019@gmail.com	
Universitet kampusi 1-blok	Hafta kunlari Seshanba/Shanba		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	<i>O‘zbekistonni eng yangi tarixi</i>	<i>1-semestr</i> 30	<i>1-semestr</i> 30	<i>1-semestr</i> 60
1-semestr	Modul 1 Ma‘ruza	15	15	30
	Modul 2 Semenar	15	15	30
	JAMI	30	30	60

Fanning tavsifi:

O‘zbekistonning eng yangi tarixi xaqida so‘z ketganda, avvalo 1991 yildan beri mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning mohiyati va ahamiyatini tushunish kerak. Ushbu jarayon qanday o‘tganini, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar va mustaqillikning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganligini tushunish muhimdir.

Fan mohiyati:

mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatish va jamiyat hayotida talabning o‘rnini, o‘zligini anglatishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifalari – mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy hamda boshqa sohalaridagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g‘ururni shakllantirishdan iborat.

Fanning natijasi:

mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni, ularning sabablari va oqibatlarini;

mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlarni, O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalarini, zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan bilishi kerak;

O‘zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o‘rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g‘oyasini qo‘llay bilish, atrofida sodir bo‘layotgan

jarayonlarga o'z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o'rnini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g'oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.

Baholash mezonlari:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9- avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YaN dan iborat.

A. Baholash

- 1) Oraliq nazorat – 40 %, o'z ichiga:
 - Seminarlarda faol ishtiroki – 5%;
 - O'quv-mashg'ulot (topshiriqlarni bajarishi) – 5%;
 - Case study imtihoni (yakka yoki guruhda ishlash, taqdimot, tahliliy maqola) –30%;
- 2) yakuniy nazorat (test asosida javob berish) – 60%.

B. Baholash

Baholash usullari	Og'zaki so'rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	<p>Nazorat shakllari</p> <p>Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, taqdimotlar ko'rinishida o'tkazilishi mumkin.</p> <p>Mustaqil fikrlash va tanqidiy mulohazani o'zida ifodalagan mukammal ish bajarilishi ko'zda tutiladi. Qo'yilgan masalalar talaba tomonidan tegishli metodologiya, uslub va ma'lumot manbalaridan foydalangan holda, ishonchli dalillar asosida ochib berilishiga qaratiladi. Mulohazalarni etarli darajada rivojlantirish, analitik fikr yuritishga o'rgatiladi.</p>
5 (A) 100-86	<p>Ish etarli darajada mustaqil va tanqidiy fikr-mulohazalarni, analiz va sintez qilish qobiliyatini, mantiqiy izchillikni, qator manbalardan foydalanilib keng mushohada yuritishni hamda mavzuni mukammal tushunishni namoyon etadi. Shuningdek, ish juda yaxshi tadqiq qilinib, javobda asosli mulohazalar bildirilgan bo'ladi. Ushbu ish original va talqin mohirona olib borilganligi, tadqiqot tanqidiy tahlil va tanqidiy baholash orqali zarur tadqiqot metodologiyasi, uslublari va manbalaridan foydalanilgan holda yondashilganligi bilan ajralib turadi. Ish yuqori ta'lim standartlari asosida yozilgan bo'lib, biroz tahrir qilish orqali mukammal darajaga etkazilishi mumkin.</p>
4 (B) 85-71	<p>Ish mavzuning aniq anglanganligi va tadqiqot sohasidagi munozaralarda tanqidiy ishtirok etish imkoniyatini ifoda etib, malakali va metodologik xususiyatga ega. Tadqiqot masalalari aniq ko'rsatib o'tilgan va javob berilgan. Asosiy mulohazalar aniq, misollar hamda asoslar o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlarga qaraganda pastroq sifatda va unchalik original emas. Ishda fikrlar yaxshi tartibda keltirilgan, bayon aniq hamda mantiqan izchil, kirish va xulosa qismlari ravon ifodalangan. Manbalardan yuqori darajadagi ishlardek tizimli yondashilmagan bo'lsa-da, o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlar kabi izchil bo'lmasa-da, tahliliy qobiliyatni namoyon etadi. Ushbu ish yaxshi ta'lim standartlarini o'zida ifodalagan holda jiddiy grammatik va sintaktik xatolardan holi ravishda yozilgan.</p>

3 (C) 70-56	Ishda ishonchli talqin va asoslar keltirishda xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Savolga qisman javob berilgan. Ish asosan bayoniy tarzda (tahlildan holi) ifodalangan. Mantiqiy bog‘lash etarli darajada emas. Ba‘zi xulosalar xato keltirilgan. Ushbu darajadagi ishlar muammo mavzusini bazaviy anglashni va bilimni qo‘llash bo‘yicha ma‘lum ko‘nikmalarni namoyon etadi. Manbalar ko‘rsatilmagan yoki to‘g‘ri ko‘rsatilmagan yoxud etarli darajada ko‘rsatilmagan. Ushbu ish qoniqarli talablar asosida, biroq bir qancha grammatik va sintaktik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda yozilgan.
2 (D) 55-49	Talabga javob bermaydi (nazoratdan o‘tmagan). Ishning katta qismida mavzudan chetga chiqilgan, markaziy fikr mavjud emas, manbalar va havolalardan noizchil yoki etarli darajada foydalanilmagan hamda grammatik va sintaktik xatolarga takror-takror yo‘l qo‘yilgan. Mulohazalarni bazo‘r fahmlash mumkin, juda yomon tartib berilgan, fikrlarni anglab olish mushkul yoki anglashning imkoni yo‘q. Ish mavjud g‘oyalarni tanqidiy fikrlashsiz takrorlaydi. Ish ko‘plab isbotlanmagan qarashlar va bayonotlarni o‘z ichiga olib, dalillar keltirilmagan yoki asossiz va cheklangan.
0 (F)	Plagiat. Savolga umuman javob berilmagan. Unga aloqador bo‘lmagan ma‘lumotlar keltirilgan. Talaba ish haqida tasavvurga ega emas va materiallardan foydalana olish bo‘yicha bazaviy bilimlarni ko‘rsata olmagan. Shu bilan birga ish plagiat bilan yozilgan.

Ta’lim berish va o‘qitish metodlari:

- interfaol o‘quv texnologiyalaridan foydalanish (daydjest, keys-stadi, kichik guruhlarda ishlash; deklamatsiya, konferensiyalar, taqdimotlar);
- power point taqdimotlaridan foydalanish;
- reytinglar va kumulyativ boshqaruv tizimidan foydalanish.

Kalit so‘zlari:

davlat, mustaqillik, strategiya, yaqin tarix, barqarorlik, iqtisodiyot, ta’lim, siyosat, ijtimoiy rivojlanish, madaniy va ma’naviy rivojlanish, barkamol avlod, GKChP, “O‘zbek modeli”, “Paxta ishi”, qayta qurish, suverenitet, parlament.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar

№	Mavzular	soat	
		m	s
1.	“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.	1/1	
2.	Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.	1/1	
3.	Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.	1/1	
4.	O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li	1/1	
5.	O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.	1/1	
6.	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.	1/1	
7.	O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.	1/1	
8.	Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.	1/1	
9.	O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.	1/1	
10.	Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1/1	
11.	O‘zbekiston va jahon hamjamiyati	1/1	
12.	Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.	1/1	

13.	O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi siyosati.	1/1
14.	Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash	1/1
15.	Qayta tiklanadigan O'zbekiston: milliy uyg'onishdan milliy yuksalishga qadar	1/1
	Jami:	15/15

Fan bo'yicha savollar to'plami

1. Davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va ahamiyati.
2. Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
3. O'zbekistonning davlat ramzlari va konstitutsiyasining qabul qilinishi.
4. Huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyati asoslarining shakllanishi.
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning huquqiy asoslarini yaratilishi.
6. Davlat mulkini hususiy lashtirish.
7. Mulkdorlar sinfi va bozor infrastrukturasi shakllantirilishi.
8. Agrar sohadagi islohotlar.
9. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi va milliy o'zlikni anglash.
10. Ta'lim taraqqiyoti. Madaniyat va ma'naviyat sohalaridagi yutuqlar.
11. O'zbekistonning geosiyosiy ahvoli va milliy xavfsizligi.
12. O'zbekistonning mustaqil tashqi siyosati va uning asosiy tamoyillari.
13. Mustaqillik yillaridagi xalqaro aloqalar.
14. O'zbekistonning MDH bilan hamkorligi.
15. O'zbekistonni Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi.
16. O'zbekistonning horijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.
17. O'zbekistonda ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar.
18. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
19. O'rta Osiyo olimlari ilmiy merosining yuqori ma'lumotli yoshlarni tarbiyalashdagi o'rni (olimlarning ilmiy faoliyati misolida).
20. O'zbekiston Respublikasidagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o'zgarishlar va muammolar).
21. Qishloq xo'jaligi va sanoatdagi o'zgarishlar.
22. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlarini yaratish.
23. Milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlar.
24. O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ning asosiy yo'nalishlari.
25. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.
26. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning o'ziga xos hususiyatlari.
27. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash.
28. Inson huquqlari va fuqaro huquqlari, erkinlik, majburiyat tushunchalari.
29. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan asosiy huquqlar.
30. Shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquq va erkinliklar tushunchalari.
31. Yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari.
32. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshiriladigan islohotlar.
33. O'zbekiston va Jahon hamjamiyati.
34. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot.
35. Davlat hizmati tizimini tubdan isloh qilish.
36. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.
37. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati
38. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.
39. O'zbekistonda demokratik, fuqorolik jamiyati asoslarining shakllanishi.
40. Fuqorolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining- yuqori bosqichi.
41. Fuqorolik jamiyati to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar
43. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida xalqaro huquq tamoyillarining aks ettirilishi va rivojlantirilishi.

44. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish.
45. O‘zbekistonning Jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi.
46. Fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy stragegik pirovard maqsadi
47. Korrupsiyaga qarshi kurash-fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti.
48. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni (2017 yil) mazmuni
49. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar.
50. Qoraqalpog‘istonda ma’naviy, madaniy sohadagi o‘zgarishlar.
51. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar.
52. Mustaqillik yillarida ilfanning rijojanishi
53. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning qabul qilinishi.
54. Erkin saylovlar fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi.
55. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.

Fan doirasida tavsiya qilinadigan nazariy-metodologik va asosiy manbalar:

Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. - Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
7. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T. 14. - Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – Toshkent: Ozbekiston, 2011.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
11. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir. Xalq so‘zi. 2012, 10 may.
12. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - Toshkent: O‘zbekiston. 2015.

Asosiy adabiyotlar

13. Mustaqil O‘zbekistan tarixining dastlabki saxifalari. - Toshkent, 2000.
14. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
15. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.
16. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
17. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
18. Noveyshaya istoriya Uzbekistana. Rukovoditel’ proekta i redaktor: M.A.Raximov. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

Qo‘shimcha adabiyotlar

19. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - Toshkent: 2001.
20. Azizxo'jayev A.A. Chin o'zbek ishi. - Toshkent, 2003.
21. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
22. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.
23. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.
24. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. -Toshkent: Moliya, 2003.
25. O'zbekiston mustaqillik yillarida. - Toshkent: O'zbekiston, 1996.
26. O'zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, 2005.
27. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlarini: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
28. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
29. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas'ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
30. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O'zbekiston, 2019.
31. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.
32. Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.
33. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70 80-yillar misolida). Qo'llanma. - Toshkent: Sharq, 1999.
34. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.
35. G'ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O'zbekiston. -Toshkent: Mehnat, 2001.

Internet saytlari:

36. www.ziyonet.uz.
37. www.edu.uz.
38. www.google.uz.
39. www.gov.uz.

O'qituvchining kontakt ma'lumotlari

+998909338227/ Charievtursun2019@gmail.com

O'qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti

Seshanba/Shanba